



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOB VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин қизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahyo'yevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	<i>O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI</i> <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	<i>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI</i> <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	<i>O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH</i> <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	<i>LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduturapova Dildora Farxodjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Biznes boshqaruvi" kafedrasida v.b. dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
e-mail: dildorailmiy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada logistika tizimlarida yuzaga keladigan risklarni boshqarish hamda sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Logistika jarayonlarida transport, yuk, ombor, axborot va moliyaviy risklarning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilinib, ularni kamaytirishda sug'urta instrumentlarining o'zni baholangan. Tadqiqot davomida logistika faoliyatida risklarni identifikatsiya qilish, baholash va monitoring qilishning zamonaviy yondashuvlari o'rganilib, integratsiyalashgan risk-menejment va sug'urta mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Natijada logistika tizimlarining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar asosidagi risklarni boshqarish tizimlari hamda moslashuvchan sug'urta mahsulotlarini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: logistika, risklarni boshqarish, sug'urta mexanizmlari, transport risklari, yuk sug'urtasi, ta'minot zanjiri, logistika infratuzilmasi, raqamli logistika, risk-menejment.

Abstract: This article examines risk management issues in logistics systems and the improvement of insurance mechanisms. The economic consequences of transportation, cargo, warehousing, information, and financial risks arising in logistics activities are analyzed, and the role of insurance instruments in mitigating these risks is assessed. The study explores modern approaches to risk identification, assessment, and monitoring in logistics and proposes scientific and practical recommendations for implementing integrated risk management and insurance mechanisms. The findings justify the need for digital risk management systems and flexible insurance products to enhance the sustainability and competitiveness of logistics systems.

Keywords: logistics, risk management, insurance mechanisms, transport risks, cargo insurance, supply chain, logistics infrastructure, digital logistics, risk management.

Абстрактный: В данной статье исследованы вопросы управления рисками в логистических системах и совершенствования страховых механизмов. Проанализированы экономические последствия транспортных, грузовых, складских, информационных и финансовых рисков, возникающих в логистической деятельности, а также оценена роль страховых инструментов в их снижении. В ходе исследования изучены современные подходы к идентификации, оценке и мониторингу рисков в логистике, предложены научно-практические рекомендации по внедрению интегрированных механизмов риск-менеджмента и страхования. Обоснована необходимость развития цифровых систем управления рисками и гибких страховых продуктов для повышения устойчивости и конкурентоспособности логистических систем.

Ключевые слова: логистика, управление рисками, страховые механизмы, транспортные риски, страхование грузов, цепочка поставок, логистическая инфраструктура, цифровая логистика, риск-менеджмент.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro savdo hajmlarining ortishi va ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi logistika tizimlari faoliyatida risklarni boshqarish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Zamonaviy logistika tizimlari transport, ombor xo'jaligi, yuklarni qayta ishlash, bojxona rasmiylashtiruv va axborot almashinuvi kabi ko'plab o'zaro bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan turli xavf-xatarlar logistika operatsiyalarining uzluksizligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanish va logistika xizmatlari sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-sonli "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] bilan 2030-yilgacha transport-logistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Mazkur qarorda avtomobil, temir yo'l va havo transportida xalqaro yuk tashish hajmini kamida ikki barobarga oshirish, transport-logistika xizmatlari eksportini ikki barobarga ko'paytirish, konteyner tashuvlari ulushini 1,5 baravarga oshirish hamda O'zbekistonning Jahon banki Logistika samaradorligi indeksidagi (LPI) o'rnini sezilarli yaxshilash vazifalari belgilangan¹.

Ushbu maqsadlarga erishish transport va logistika tizimlarida yuzaga keladigan risklarni samarali boshqarish, yuk tashish xavfsizligini ta'minlash hamda sug'urta mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Chunki logistika operatsiyalarida transport hodisalari, yuklarning shikastlanishi yoki yo'qolishi, bojxona va chegara jarayonlaridagi kechikishlar, tabiiy ofatlar, geosiyosiy omillar va kiberxavfsizlik bilan bog'liq risklar logistika xizmatlari samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli logistika tizimlarida risklarni boshqarish va sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi².

So'nggi yillarda pandemiyalar, geosiyosiy ziddiyatlar, transport yo'laklaridagi uzilishlar, tabiiy ofatlar va kiberxavfsizlik tahdidlari logistika tizimlarining zaif tomonlarini yaqqol namoyon etdi. Natijada logistika korxonalar va ta'minot zanjiri ishtirokchilari risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Risklarni samarali boshqarishda sug'urta tizimi muhim iqtisodiy instrumentlardan biri hisoblanadi. Sug'urta logistika operatsiyalari davomida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni qoplash, korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash va investorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois logistika tizimlarida risklarni boshqarish va sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://gov.uz/oz/mintrans/news/view/34372?utm>

² <https://gov.uz/oz/mintrans/news/view/34372?utm>

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Logistika tizimlarida risklarni boshqarish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Risk-menejment nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan H. Markowitz risklarni diversifikatsiya qilish orqali kamaytirish imkoniyatlarini asoslab bergan bo'lsa, logistika sohasidagi tadqiqotlarda C. Christopher va M. Peck ta'minot zanjiri risklarini boshqarishning strategik yondashuvlarini ishlab chiqqanlar [2].

Xalqaro amaliyotda logistika risklari transport, operatsion, moliyaviy, ekologik va axborot risklariga ajratilib o'rganiladi. Tadqiqotlarda yuklarning shikastlanishi, transport vositalarining nosozligi, bojxona kechikishlari va geosiyosiy omillar logistika faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy risklar sifatida baholanadi [3].

Sug'urta bozorining logistika tizimlaridagi o'rni bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarda yuk sug'urtasi, transport javobgarligi sug'urtasi va logistika operatorlari javobgarligi sug'urtasi moliyaviy xavflarni kamaytirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi [4].

Raqamli logistika konsepsiyasi rivojlanishi bilan risklarni boshqarishda sun'iy intellekt, Big Data va IoT texnologiyalaridan foydalanish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotchilar real vaqt rejimida monitoring qilish va prognozlash tizimlari logistika operatsiyalarining ishonchligini oshirishini ta'kidlaydilar [5].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, logistika tizimlarida risklarni boshqarish va sug'urta mexanizmlarini integratsiyalashgan holda qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish zarur.

Tadqiqotni usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ekspert baholash, tizimli yondashuv hamda risklarni baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida logistika tizimlarida uchraydigan asosiy risklar tasniflandi, ularning logistika faoliyatiga ta'siri o'rganildi hamda sug'urta mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy amaliyot o'zaro taqqoslanib, logistika tizimlarida risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari baholandi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты / Analysis and Results)

Logistika tizimlarining samaradorligi ko'p jihatdan risklarni boshqarish darajasiga bog'liq. Risklar logistika operatsiyalarining barcha bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash va minimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

1-jadval**Logistika tizimlarida uchraydigan asosiy risklar tasnifi**³

Risk turi	Mazmuni	Ta'sir darajasi
Transport risklari	Yo'l-transport hodisalari, kechikishlar	Yuqori
Yuk risklari	Shikastlanish, yo'qolish, o'g'rilik	Yuqori
Ombor risklari	Yong'in, texnik nosozliklar	O'rta

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References)

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori. "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarori. PQ-28-сон 27.01.2025. O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida ;
- [2] Markowitz, H. (1952). Portfolio Selection. The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1, pp. 77–91. Available at: <https://www.jstor.org/stable/2975974>
- [3] Christopher, M., & Peck, H. (2004). Building the Resilient Supply Chain. The International Journal of Logistics Management, Vol. 15, No. 2, pp. 1–14. DOI: <https://doi.org/10.1108/09574090410700275>
- [4] Waters, D. (2011). Supply Chain Risk Management: Vulnerability and Resilience in Logistics. 2nd Edition. London: Kogan Page Publishers. Available at: <https://www.koganpage.com>
- [5] Tummala, R., & Schoenherr, T. (2011). Assessing and Managing Risks Using the Supply Chain Risk Management Process (SCRMP). Supply Chain Management: An International Journal, Vol. 16, No. 6, pp. 474–483. DOI: <https://doi.org/10.1108/13598541111171165>;
- [6] Ivanov, D., Dolgui, A., & Sokolov, B. (2019). The Impact of Digital Technology and Industry 4.0 on the Ripple Effect and Supply Chain Risk Analytics. International Journal of Production Research, Vol. 57, No. 3, pp. 829–846. DOI: <https://doi.org/10.1080/00207543.2018.1488086>

Moliyaviy risklar	Valyuta kursi o'zgarishi, to'lov kechikishi	O'rta
Axborot risklari	Kiberhujumlar, ma'lumotlar yo'qolishi	Yuqori
Tabiiy risklar	Zilzila, suv toshqini, bo'ronlar	O'rta

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transport va yuk risklari logistika korxonalari duch keladigan eng yuqori darajadagi xavf omillari hisoblanadi. Shu sababli logistika faoliyatida sug'urta mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval**Logistika tizimlarida qo'llaniladigan sug'urta turlari**⁴

Sug'urta turi	Sug'urta obyekti	Asosiy afzalligi
Yuk sug'urtasi	Tashilayotgan yuklar	Moliyaviy yo'qotishlarni qoplaydi
Transport sug'urtasi	Transport vositalari	Texnik zararlarni qoplaydi
Javobgarlik sug'urtasi	Logistika operatorlari	Uchinchi shaxs oldidagi javobgarlikni qoplaydi
Kiber sug'urta	Axborot tizimlari	Kiberxavflarni kamaytiradi
Kompleks logistika sug'urtasi	Barcha logistika operatsiyalari	Integrallashgan himoya yaratadi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, logistika tizimlarida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun sug'urta kompaniyalari va logistika operatorlari o'rtasida raqamli platformalar asosidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari logistika tizimlarida risklarni boshqarish va sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Birinchidan, logistika korxonalarida integratsiyalashgan risk-menejment tizimlarini joriy etish zarur.

Ikkinchidan, yuk, transport va javobgarlik sug'urtasi bo'yicha kompleks sug'urta mahsulotlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, IoT, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida risklarni prognozlash va monitoring qilish tizimlarini rivojlantirish lozim.

To'rtinchidan, logistika va sug'urta kompaniyalari o'rtasida yagona raqamli axborot almashinuvi platformalarini yaratish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, logistika tizimlarida risklarni boshqarish va sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish logistika xizmatlari sifati, ta'minot zanjiri barqarorligi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

³ Muallif ishlanmasi.⁴ Muallif ishlanmasi